

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2023

5-son
(Sentabr-Oktabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

M. Tairova	75	Bo'lajak tarbiyachilarni mutaxassislikka tayyorlashda zamonaviy didaktik vositalardan foydalanish
N. Kadirova	79	O'quvchining tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda yangicha yondashuv tajribasi
Z. Komilova	84	Innovatsion ta'lif-tarbiya jarayonida 10-11-sinf o'quvchilarining axborot madaniyatini rivojlantirish
I. Jumaniyazova	89	Milliy mumtoz adabiyot namunalarining o'qitilishiga doir tadqiqotlar tahlili

TA'LIMDA MENEJMENT

M. Xalilova	93	Maktabgacha ta'lif tizimida inson kapitalini rivojlantirishda ikkinchi tilni o'rganishning psixofiziologik ahamiyati
KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH		
K. Masharipov	97	Uzluksiz ta'lif tizimida kasbga yo'naltirish ishlarini takomillashtirishning dolzarbligi
HUQUQ VA HUQUQIY TARBIYA		
D. Sharipova, I. Ibrohimov	100	Yo'l harakati xavfsizligida piyodalarining o'rni – pedagogik aspekt (Koriya tajribasi asosida)

JISMONIY TARBIYA VA SPORT

V. Karayev	106	Sport hakamlarini tayyorlashda kompetensiyaga asoslangan yondoshuv
Sh. Mirzakulov	110	5-7 sind o'quvchilarida chidamlilikni rivojlantirish texnologiyasi
A. Sabirov	114	Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining innovatsion kasbiy faoliyatini shakllantirishing uslubiy ahamiyati
Sh. Ro'ziyev	118	Voleybol murabbiyining kasbiy-pedagogik tayyorgarligi

MAKTABGACHA TA'LIM

A. Shadiyev	122	Maktabgacha yoshdagи bolalarning rivojlanish dinamikasiga xos xususiyatlari
-------------	-----	---

QIYOSIY PEDAGOGIKA

D. Kamoljonova	126	Xorijiy tajribalar asosida boshlang'ich sind o'quvchilarida kitobxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish (AQSh va Yevropa misolida)
A. Xolmurodov	130	Pedagog kadrlar malakasini oshirishning ilg'or xorijiy tajribalari

KORREKSION PEDAGOGIKA

R. Safarov	135	Ko'zi ojiz bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lif muassasasida ta'lif sifatini boshqarishda korrekcion tarbiya va tarbiyachilarning o'rni
------------	-----	---

ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

L. Nabiyulina	140	Подходы, принципы и направления развития интеллектуальной мобильности в системе высшего образования
---------------	-----	---

Aloviddin SABIROV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
"Jismoniy madaniyat nazariyasi" kafedrasi o'qituvchisi

BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINING INNOVATSION KASBIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHNING USLUBIY AHAMIYATI

Annotatsiya

Zamanoviy ta'limgiz tizimini isloq qilish jarayonida pedagog kadrlar nazariy va amaliy, mas'uliyati kasbiy ko'nikmasini shakllantirish hamda imkoniyatlarni takomillashtirishda uzviy ta'limgiz islohotlarni joriy etish yuzasidan ushbu maqolada innovatsion faoliyat va uning shakllanish omillari zaruriyati haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar. Pedagogik innovatsion faoliyat, innovatsiya, modernizatsiya, kasbiy faoliyat, ta'limgiz sifati.

В процессе реформирования современной системы образования в данной статье рассматривается инновационная деятельность, факторы ее формирования, а также необходимость формирования профессиональных навыков педагогов в процессе формирования теоретических и практических, ответственных профессиональных навыков и возможностей их совершенствования.

Ключевые слова. Педагогическая инновационная деятельность, инновации, модернизация, профессиональная деятельность, качество образования.

In the process of reforming the modern education system, this article discusses innovative activities, the factors of its formation, and the necessity of forming the professional skills of pedagogues in the process of forming theoretical and practical, responsible professional skills and improving opportunities.

Key words. Pedagogical innovative activity, innovation, modernization, professional activity quality of education.

Bugungi kunda zamonaviy ta'limgiz tizimida asosiy omillardan biri o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish va bu faoliyatga tayyorlash orqali ta'limgiz jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish, talabalarga bilim berishni kafolatlash hamda ta'limgiz samaradorligiga erishishdan iborat. Ta'limgiz tizimini mazmunan isloq qilish jarayonida pedagog kadrlar nazariy va amaliy bilim hamda kasbiy ko'nikmasini shakllantirish. Bu borada o'qituvchi faoliyatini yangi innovatsiyalarni ta'limgiz jarayoniga kiritish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Ta'limgiz dasturlarini tuzishi jihatidan kiritilayotgan yangiliklarni tajriba-sinov bosqichlariga ajratib, uning rejasini ishlab chiqish, yangilikni tahlil qilish, pedagogik jarayonga yangilikni kiritish, va amalga oshirish, pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarini baholash talab etiladi. Bu jamiyatda boshqa soha mutaxassislari bo'lgani kabi pedagoglarning ham kasbiy tayyorgarlik darajasi ularning bilim, ko'nikma hamda malakalarini, ilmiy salohiyati va tafakkurlarida o'zida aks ettiruvchi kasbiy layoqati bilan baholanadi. Jismoniy tarbiya o'qituvchilarni innovatsion faoliyatini tahlil qilish orqali ularning shakllanishidagi bosqichlarini quyidagicha belgilash mumkin:

– vazifalarni bajarishi lozim bo'lgan pedagogik faoliyatda yo'nalishni shakllantirib

borish;

- pedagogik jarayonda – subyekt hamkorligini yo'lga qo'yish;
- pedagoglik faoliyatini rivojlantirish va bunga qiziqishni orttirib borish;
- pedagogik muloqotda ochiqlikni ta'minlash;
- o'qituvchining potentsial imkoniyatlari va rivojlantirish bo'yicha mutaxassislarni talab qiladi, talaba va ularning ta'lif jarayonida o'zaro ta'siri amalga oshirishning innovatsion tarbiyaviy jarayoni;
- ijodiy fikrlash yo'naliшини rivojlantirib borish;
- pedagogik vazifalarni hal qilishga ijodkorlik bilan yondashuv, tahlil qilish malakalarini rivojlantirib borish;
- ijodiy ishslash texnologiyasini shakllantirish.

Bu jarayonda shaxsiyatni o'stirish treningi, muammoli o'qitish texnologiyasi, faol ta'lif metodikasidan foydalanish va yangilik kiritish jarayoni bilan tanishtirib borish lozim. Birinchi bosqichning asosiy mazmunini umumiy psixologik-pedagogik bilimlarni egallash, o'z faoliyatini tahlil qilish ko'nikma va malakalarini shakllantirishni tashkil etadi. Mazkur bosqich oliy ta'lif muassasalaridagi ta'lif jarayonida shakllantirilishi lozim.

O'qituvchilarda innovatsion faoliyatni shakllantirishning ikkinchi bosqichida quyidagi vazifalar bajarilishi lozim:

- pedagogik faoliyatni variativ rivojlantirish, – ma'naviy-madaniy bilimlarni oshirish;
- pedagogik yangiliklarni o'zlashtirish ehtiyojini shakllantirish, pedagogik refleksni rivojlantirish;
- yangi turdag'i faoliyat sifatida innovatsion axborot kommunikatsiyalarni shakllantirish.

O'qituvchilarni mazkur vazifalarini bajarishga tayyorlashda muammoli o'qitish, o'zini anglash bo'yicha treninglar tashkil etish, o'qitishning rivojlantiruvchi texnologiyalari bilan tanishtirib borish, o'qitishning shaxsga mo'ljalangan texnologiyalaridan foydalanish, konsepsiylarini izohlash, o'qitish metodlarini tanlashga o'rgatish, darsni kompozitsiyalash, pedagogik texnika va texnologiya treninglarini, mustaqil ishlarni tashkil etish orqali pedagogik faoliyatni muntazam takomillashtirib borish lozim.

Bunda ta'lif dasturlarini tuzish metodikasini bilish, kiritilayotgan yangiliklarni tajriba-sinov bosqichlariga ajratib, uning rejasini ishlab chiqish, yangilikni tahlil qilish, pedagogik jarayonga yangilikni kiritish, tuzatishlarni amalga oshirish, pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarini baholash talab etiladi. Bu bosqichni shakllantirishda, asosan, quyidagi texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq: tashkiliy-faoliyatli o'yinlar, innovatsion refleksli amaliyot, mualliflik konsepsiylarini o'rganish, mualliflik dasturlari, ishlanmalarini yaratish, innovatsion tipdagi o'quv muassasalarida amaliyot o'tash, malaka oshirishning turli shakllarida va muammoli kurslarda ishtirok etish, pedagogik mahoratni mustaqil oshirish.

Innovatsion faoliyatga tayyorlashdagi mavjud muammolardan biri – bu psixologik to'siqning mavjudligi. Jismoniy tarbiya o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda qiyinchiliklarga duch kelinishining qator sabablari bor.

Ular quyidagilardan iborat: pedagoglarda konservativizmning mavjudligi, ya'ni ularda adaptatsiya shakillanmaganligi ta'lif beruvchi va ta'lif oluvchilarning orasidagi tafovut samarali ta'sirini tashkil eta olmaslik; yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishga nisbatan qiziqishning passiv holatdaligi ta'lif berishning an'anaviy metodlari dan voz kechib, zamonaviy metodlarini qo'llay olmaslik.

Pedagogik jarayonda innovatsion faoliyat muhim o'rin egallaydi. Ayni bir vaqtda, bir xil sharoitlarda o'qitish sifat-samaradorligi har bir o'qituvchida turli xil bo'lishi mumkin. Bilimning barcha sohalaridagi jadal jarayon tufayli amalda qo'llanilayotgan o'quv materiallarida keltirilgan axborotning ma'lum bir qismi tezda o'z dolzarbligini yo'qotadi va yangilashni taqozo etadi. Ayniqsa, bu ijtimoiy-gumanitar fanlarga taalluqli.

Asosiy maqsad talabaga beriladigan bilim sifatini oshirish va samaradorlikka erishishdan iborat ekan, o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonida pedagogika va texnologiya sohasidagi so'nggi yutuqlarga, o'quv jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash mexanizmiga katta e'tibor berish kerak.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga va innovatsion jarayonlarga tayyorlash ishlarining ancha murakkabligi haqida xulosa chiqarish mumkin. Bu bir qancha obyektiv va subyektiv sabablar, eng avvalo, o'qituvchilarining axborot texnologiyalari bo'yicha boshlang'ich tayyorgarlik darajasining pastligi, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish borasida malakasining yetarli emasligi, zaruriy o'quv axborotlarini mustaqil holda o'zlashtira olish malakasi yo'qligi bilan bog'liq. Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining innovatsion faoliyati haqida gapirganda bu faoliyatning ilmiy-metodik o'ziga xosligi haqidagi savol paydo bo'ladi.

Bu faoliyatning imkoniyatlari ta'lrim tizimi ko'lamida innovatsion g'oyalar, loyiham, texnologiyalarni joriy qilishda va shaxsni rivojlantirishda namoyon bo'ladi. Bu faoliyat imkoniyatlari o'zida quyidagilarni jamlaydi:

- o'qituvchining yangilikni qo'llashga tayyorgarligi;
- o'qituvchining pedagogik yangilikni qabul qilishi;
- jamoada o'qituvchining novatorlik darajasi;
- o'qituvchi kommunikativ qobiliyatining rivojlanganligi;
- o'qituvchining ijodkorlik darajasi.

O'qituvchilarining yangilikni o'zlashtirishga tayyorgarlik mezonlari esa o'qituvchi motivatsiyasi, malaka tayyorgarligi, pedagogik tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish borasidagi bilim va malakalari, innovatsiya yo'lidagi to'siqlarni bartaraf eta olish mahorati bilan belgilanadi.

O'qituvchi innovatsion faoliyatining asosiy belgilaridan biri uning ijodiy faolligi, ijodkorligi hisoblanadi. O'qituvchidan yangiliklarni o'zlashtirib borish bilan birga ularni o'z faoliyatida qo'llashi va pedagogik jamoa o'rtasida targ'ib qilishi talab etiladi. Innovatsion faoliyat pedagogik mahoratning yuqori bosqichi bo'lib, bunda jamoa a'zolari bir-birini qo'llab-quvvatlashi, kiritilayotgan yangilikning muktabda o'z o'rnini topishiga ishonch bilan qarash, qiyinchiliklarga duch kelganda ruhan tushkunlikka tushmasdan, o'z xatolarini ko'ra bilish va ularni tuzatishga harakat qilish talab etiladi. O'z-o'zini tarbiyalab borish, o'z ustida tinmay ishlashga harakat qilish innovatsion faoliyatning asosiy sharti hisoblanadi.

Ta'lim sifatini oshirish jamiyatning barcha jabhalarida hayotni yaxshilashga olib keladi. Yangilik kiritish ta'lim sifatini oshirishning samarali vositasi bo'lganligi uchun ham rivojlangan davlatlar ta'lim jarayoniga uzlusiz yangilik kiritishga harakat qiladilar. Ko'pgina mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsion jarayonlarda ta'lim tizi-midagi barcha bo'g'inlar ishtirok etishi lozim. Ammo innovatsion jarayonlar yuqorida pastga qarab harakatlansa va bunda o'qituvchi bo'y sunuvchi, ya'ni yangilikning faqat iste'molchisi bo'lib qolsa, u holda bu jarayon byurokratik tus oladi.

Innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonida maqsad aniq belgilanib, o'qituvchi-

ning oldingi faoliyatini tashxislash asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq. O'qituvchi innovatsion faoliyatining natijasi quyidagilarda ko'rindi:

- bajarilishi lozim bo'lgan ishning maqsadini aniqlay olishida;
- nostandard vaziyatlarni tahlil etib, tezkor xulosalar chiqara bilishida;
- o'quv jarayoni bilan bog'liq masalalarni yechish usullarini egallaganligida;
- muammolarni hal etishning maqbul vosita va usullarini izlab topish, kuzatish va tajriba natijalarini tizimlashtirishda;
- o'z ustida mustaqil ishflashni rejlashtira olishida;
- o'z ishi natijasini nazorat va tahlil qila olishida;
- yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish malakasining mavjudligida;
- yangi g'oyalarni izlab topa olishi, pedagogik masalalarni algoritmlashtirish malakasiga egaligida.

Innovatsion faoliyat bir necha bosqichlarda tarkib topadigan faoliyat bo'lib, o'zining nazari va amaliy asoslariga ega bo'lgan pedagogik faoliyatning alohida bosqichi. Innovatsion faoliyat infratuzilmasini shakllantirish, ya'ni innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan xizmatlarni taklif etuvchi tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish taqozo etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sabirov Aloviddin Abdulraxmonovich, Germaniya – Journal of Advanced Research and Scientific Progress (JARSP) // The Sequence of Movement in Teaching Gymnastics Exercises, Volume: 01 Issue: 04 2022.
2. Sabirov Aloviddin Abdulraxmonovich. Pedagogical and management technology. International Conference on "Ethics and Integrity in the Competitive //World" International Conference on Research Identity USA 2022-10-28.
3. Sabirov A.A. Gimnastika mashqlarini o'rgatishda harakatning ketma-ketligi// "Muallim ham uzlusiz bilimlendirir", 2022. №6/3, – 93-96 b.
4. Uljayevna R.F. Maktabgacha talim tashkiloti tarbiyachisining kasbiy pedagogik kompetensiyani takomillashtirish xususiyatlari //science and innovation. – 2022. – T.; 1. – №. B2. – 88-91 b.
5. Uljayevna R.F., Saydamatovna Z. Maktabgacha yoshdag'i bolalarning ijodiy faoliyatini shakllantirishning o'quv-uslubiy ta'minoti //science and innovation. – 2022. – T.; 1. – №. B3. – 349-355 b.
6. Feruzaxon Uljayevna O'ranova, Dilyora Iskandarovna. Bo'ajak tarbiyachilarda aqliy faoliyat madaniyatini shakllantirish. Central asian academic journal of scientific research. ISSN: 2181-2489. Volume 2 | issue 3 | 2022. [Www.caajsruz](http://www.caajsruz)

Bosh muharrir:

Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Mas'ul kotib:

Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

Bosh dizayner – badiiy muharrir:

Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

TAHRIR HAY'ATI:

Xilola UMAROVA, Risboy JO'RAYEV, Komiljon MUQIMOV, Ulug'bek INOYATOV,
G'ayrat SHOUMAROV, Maqsudjon YULDASHEV, Oynisa MUSURMONOVA, Lola MO'MINOVA,
Dilyara SHARIPOVA, Barno ABDULLAYEVA, Rohatoy SAFAROVA, Xolboy IBRAGIMOV,
Ravil IS'YANOV, Mirodiljon BARATOV, Shaxnoza XALIOVA, Sharibboy ERGASHEV,
Yashin ISMANDIYAROV, Alisher UMAROV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA'MUROV,
Shukurullo MARDONOV, Ulfat MAHKAMOV, Muhayyo UMARALIYEVA.

JAMOATCHILIK KENGASHI:

Dilshod KENJAYEV, Sobitxon TURG'UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Abdughalim MAHMUDOV,
Kamola RISKULOVA, Feruza QODIROVA, Islom ZOKIROV, Ravshan ABDUXAIROV.

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko'chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: 231-16-52
t.me/xalqtalimi_jurnali. http://t.me/xalq_talimi_jurnali.

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e'lon qilingan maqolalardan olingan matnlar "Xalq ta'lifi" ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagи 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro'yxatiga kiritilgan.

"TAFAKKUR NASHRIYOTI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko'chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: ____-____-____-y. Qog'oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi ____ nusxa. – buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas'ul – To'xtamurodova Shohida Akmalxo'ja qizi

Jurnalga taqdim etilgan barcha materiallar <https://rustxt.ru/antiplagiat> sayti hamda https://t.me/check_antiplagiat_bot da monitoring qilinadi.

© "Xalq ta'lifi" jurnalı, 2023.